

**MA'ONIY ILMIDA XOBARIY JUMLANING NUTQ TINGLOVCHILARINING
HOLATIGA NISBATAN MOSLASHISHI****Zayniddin Hanifa Hasan***Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti**Arabshunoslik oliy maktabi**Magistratura 1-kurs lingvistika(arab) guruhi talabasi**Tel: (94) 663-13-83, E-mail: hanifa.zayniddin@gmail.com***Begmatova Buzahro***Ilmiy rahbar: Dots.*

Annotatsiya: “Ma’oniyl ilmida xobariyl jumlaning nutq tinglovchilarining holatiga nisbatan moslashishi” nomli maqola arab tilshunosligining mustaqil bo’limi hisoblangan balog’at ilmida o’rganiladigan kichik, ammo muhim ahamiyatda ega mavzuni yoritishga qaratildi. Balog’at ilmining mustaqil yo’nalishi hisoblanuvchi ma’oniyl ilmi xobariyl jumlaning nutq tinglovchilari holatidan kelib chiqib uch guruhga bo’ladi: ibtidoiy, tolabiy hamda inkoriyl. Ushbu maqolada Ahmad Hoshimiylning “Javahir ul-balag’a” asari asosida har bir turdagi xobarning tinglovchi holatlariga nisbatan qo’llanilish o’rinlarini o’rganildi.

Tayanch so’zlar: balog’at ilmi, ma’oniyl ilmi, xobariyl jumla, ibtidoiy xobar, tolabiy xobar, inkoriyl xobar, tanzil ul-manzila hodisasi.

Ma’oniyl ilmida e’tiborga olinadigan jihatlardan yana biri shuki, har qanday xabar tinglovchining holatidan kelib chiqib, bir necha usulda ifodalanadi. Bu borada tinglovchilar uch guruhga bo’linadi: neytral (betaraf), shubhali, inkor qiluvchi. Mana shu uch tipdagi auditoriyaga munosib tarzda xobar ham uch turga bo’linadi¹ va har bir tur jumlada ta’kidning ishlatilish-ishlatilmasligi bilan ham me’zonlanadi:

1. خبر ابتدائياً – neytral xobar (nutq). Agar tinglovchi xabar qilinayotgan ma’lumotga shubha qilmasa yoki uni inkor qiladigan holatda bo’lmasa, nutqda ta’kid ishlatilmadi. Masalan, (Har bir inson ilm talab qilishga haqlidir.) *ولكل شخص الحق في طلب المعرفة* Xabarning bu turi “boshlang’ich” hisoblanib, unda tinglovchi unga yetkaziladigan ma’lumotdan bexabar bo’lishi yoki xabardor bo’lsa ham unga nisbatan hech qanday e’tirozi bo’lmaydi.

2. خبر طلبى – shubha ostidagi auditoriya uchun xobar. Bunda tinglovchi eshitgan ma’lumotga shubhali munosabatda bo’ladi va uning haqiqatini bilishga vosita izlayotgan bo’lsa, bu holda unga kalomning hukmini kuchaytirib, ta’kid bilan yetkazish maqsadga muvofiq bo’ladi. Bunday xobarning turi طلبى (tolabiy) deyilishidan murod – unda tinglovchi berilgan xabarning rostligiga ishonch hosil qilishga intiladi. Eshituvchining ikkilanishini yo’qotish maqsadida esa, bir ta’kid qo’llaniladi. Masalan, *مُنْتَصِرُ الأَمِيرِ إِنَّ (Darhaqiqat, amir g’olibdir.)* 180

¹ أحمد حاشمى. جواهر فى المعاني والبيان والبدیع. بيروت لبنان. 2004. ص. 57

3. خبر إنكاري – inkor qiluvchi auditoriya uchun xobar. Bu turdagi xobar tinglovchi uni eshitganida inkor qilishi yoki uning aksiga ishonishi kutilgan auditoriyaga mos keladi. Bunda eshituvchining inkor qilishi kuchli yoki zaifligi e'tiborga olinib jumlada ikki yoki undan ortiq ta'kid ishlatilishi talab etiladi. Misol uchun, إِنَّ أَخَاكَ نَاصِرٌ، إِنَّهُ لَنَاصِرٌ، وَاللَّهِ إِنَّهُ لَنَاصِرٌ (Haqiqatan, akang yordam beradi. Darhaqiqat, akang rostan ham yordam beradi. Xudo haqqi, u rostan ham yordam beradi.)

Quyida arab tilida jumlaning ta'kidlash uchun ishlatiladigan qo'shimcha va yuklamalarni ko'rib chiqamiz: qasam harflari (ب، ت، و، أ، ق، س، م، ن) fe'li, hozirgi-kelasi zamonga qo'shiluvchi "og'ir" (نون) (ثَقِيلَةٌ) va "yengil" (نون خفيفة) nunlar, ta'kid lomi (ل)، yuklamasi (quyidagicha kelishi ham mumkin - لقد) va boshqalar.

Ta'kid nafaqat tinglovchi shubha ostida yoki inkor qiluvchi bo'lgan taqdirda, balki biror muhim ma'lumot haqida so'zlayotgan vaqtda ham ishlatiladi. Shu sababdan aksar arab maqollari o'zida ta'kidni mujassam etgan. Misol uchun، بِالْإِشَارَةِ اللَّيْبِ إِنَّ (Aqli odam ishoradan ham tushunadi.) maqolining o'zbek tilidagi "qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi" ekvivalentiga to'g'ri keladi.

Xobariy jumla, yuqorida aytib o'tilganidek, eshituvchi holati va vaziyat taqozosini inobatga olgan holda uch turdagi auditoriyaga mo'ljallangan. Eng qiziqarli jihati shuki, ma'oniylilikda har bir turdagi xobar boshqasiga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Masalan, neytral tinglovchiga xuddi u inkor qiluvchidek bir ta'kid bilan jumla yasash, yoki shubha ostidagi eshituvchiga esa aksincha, neytral tinglovchidek munosabatda bo'lib ta'kidsiz jumla qurish holati ko'zda tutiladi. Bu holat ma'oniylilikda تَنْزِيلُ الْمَنْزِلَةِ deb ataladi. Bu o'z-o'zidan bir necha holatlarni vujudga keltiradi va Ahmad Hoshimi o'z kitobida 7 tasini sanab o'tadi²:

1. **Neytral auditoriyaga nisbatan shubha ostidagi kabi munosabatda bo'lish.** Bunda tinglovchilar berilayotgan ma'lumotga betaraf munosabatda bo'lishligiga qaramasdan xobarda bir ta'kid ishlatiladi. Bu neytral bo'lgan shaxs tomonidan kelajakda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday shubha (yoki ikkilanish)ni bartaraf etish uchun amalga oshiriladi.

2. **Neytral auditoriyaga nisbatan xobarni inkor qiluvchi kabi munosabatda bo'lish.** Bu holat ham, beriladigan xabardagi har qanday vujudga kelishi mumkin bo'lgan kelishmovchilikni bartaraf etish maqsadida amalga oshiriladi. Bunga yorqin misolni Qur'oni Karimning "Yusuf" surasi 53-oyatida ko'rishimiz mumkin:

(إِنَّ النَّفْسَ لَأَمَّارَةٌ بِالسُّوءِ إِلَّا مَا رَجَعُ رَبِّي)

"Albatta, nafs, agar Robbim rahm qilmasa, yomonlikka ko'p undovchidir."³

Bu oyatda ko'rishimiz mumkinki, birdan ortiq ta'kid (ل، إِنَّ،) ishlatilgan.

3. **Shubha ostidagi auditoriyaga nisbatan neytral munosabatda bo'lish.** Tinglovchi berilayotgan ma'lumotga shubhali munosabatda bo'lsa ham notiq o'z nutqini hech qanday ta'kidsiz, xuddi betaraf eshituvchiga yuzlangandek bayon etadi. Psixologik nuqtayi nazardan insonlarning his-tuyg'u va emotsionalari o'zaro yuquvchanligi ham bunga turtki bo'lishi mumkin. Ba'zan dargumon kimsadan shubhani ketkazish uchun ta'kid emas, balki so'zlovchining holati,

² أحمد حاشمي. جواهر في المعاني والبيان والبدیع. بيروت لبنان. 2004. ص. 59

³ Shayx Muhammad Sodik Muahmmad Yusuf. Tafsiri Hilol. -T.: Hilol nashryoti, 2020.- 3-juz, 173-bet.

ya'ni uning hotirjamligi va o'ziga bo'lgan ishonchi ham yetarli bo'ladi. Ushbu nutq uslubi qarshi tarafni ishontirishning bir usuli hisoblanib, kontekstga qarab turli maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin.

4. **Shubha ostidagi auditoriyaga nisbatan inkor qiluvchidek munosabatda bo'lish.** Bunda tinglovchi ongidan har qanday noaniqlikni olib tashlash uchun berilayotgan xobarda ikki va undan ortiq ta'kid ishlatib kuchli urg'u berish va agar lozim topilsa, nutqga agressiv tus berish. Ushbu nutq uslubi ekstremal holatlarda, masalan, kimdir tushkun va umidsiz holga tushganda qo'llaniladi: إِنَّ الْفَرْجَ لَقَرِيبٌ (Darhaqiqat, yengillik yaqindir.)

5. **Inkor qiluvchi auditoriyaga nisbatan neytral munosabatda bo'lish.** Bu usul ikki maqsadda amalga oshirilishi mumkin: biri qarshi tomondagi kuchli emotsional norozilik va dushmanlik ruhini pasaytirish, uni tinchlantirish maqsadida qo'llash bo'lsa, ikkinchisi, notiqning o'z nutqiga beriladigan har qanday qarshilik va norozilikni pisand qilmaslik, ularni ishontirish yoki bahsga loyiq topmaslik kabi munosabat ko'zda tutiladi. Bunda notiq keltirayotgan ma'lumotga auditoriyaning qarshi munosabatiga qaramasdan o'z nutqida kuchli ta'kid va urg'u ehtiyoj sezmaydi. Bu holat Qur'oni Karimning "Ash-Shu'aro" surasida Muso alayhissalom va Firavn o'rtasida bo'lib o'tgan dialogda yaqqol ko'rinadi:

﴿قَالَ رَبُّكُمْ وَرَبُّ آبَائِكُمُ الْأَوَّلِينَ ٢٦ قَالَ إِنَّ رَسُولَكُمْ الَّذِي أُرْسِلَ إِلَيْكُمْ لَمَجْنُونٌ ٢٧ قَالَ رَبُّ الْمَشْرِقِ وَالْمَغْرِبِ وَمَا بَيْنَهُمَا إِنْ كُنْتُمْ تَعْقِلُونَ ٢٨ قَالَ لَئِنْ آتَّخَذْتُ إِلَٰهًا غَيْرِي لَأَجْعَلَنَّكَ مِنَ الْمَسْجُونِينَ ٢٩﴾

26)U (Muso): "U zot sizning Robbingiz va avvalgi ota-bobolaringizning Robbidir", dedi. 27)U: "Albatta, sizga yuborilgan Payg'ambaringiz jinnidir", dedi. 28)U (Muso): "U, agar aql yuritsangiz, mashriq-u mag'ribning va ular o'rtasidagi narsalarning Robbidir", dedi. 29)U: "Agar mendan boshqani iloh qilib olsang, albatta, men seni zindonbandlardan qilurman", dedi.⁴ Quyida keltirilgan oyatlar ketma-ketligida Muso alayhissalomning nutqilarida ta'kid ishlatilmagan va aksincha, Firavnda esa har bir gapida ikkitadan ta'kid (لَ، إِنَّ) ishlatilganligiga guvoh bo'lamiz.

6. **Inkor qiluvchi auditoriyaga nisbatan shubha ostidagi kabi munosabatda bo'lish.** Bunday nutq shakli shubha va ikkilanish hissini berkitish maqsadida butunlay inkor qilish pozitsiyasini ma'qul ko'rgan auditoriyaga nisbatan ishlatiladi. Qaysidir ma'noda notiq keltirilayotgan xobarga eshituvchilarni fikr yuritishlari va tafakkur qilishlariga rag'bat uyg'otish va undashni maqsad qilib oladi. Muallif jamiyatga taalluqli misol keltiradi va unda "axloq insonni sharaflil qiladi" degan fikrga boy-badavlat insonlarning qarshi chiqishlari, ularning nazdida izzat-hurmat faqatgina pul va boylik bilan kelishiga nisbatan إِنَّ الْجَاهَ بِالْمَالِ: إِنَّمَا يَصْحَبُكَ مَا صَحَبَكَ الْمَالُ وَأَمَّا الْجَاهُ بِالْأَدَبِ فَأَتَتْهُ غَيْرُ زَائِلٍ عَنْكَ (Pul bilan kelgan hurmat puling bor ekan sen bilan bo'ladi. Xulq bilan kelgan hurmat esa seni hech qachon tark etmaydi.)

7. **Xabardor tinglovchiga nisbatan xuddi u bexabardek munosabatda bo'lish.** Bu muloqot turi insonlar orasida yuz beruvchi kundalik munosabatlarda turli maqsadlarda ko'p qo'llanilishini kuzatish mumkin. Masalan, bir inson biror ish-harakat qilishidan oldin ularga bu haqida yaxshilab o'ylab ko'rish kerakligini bildirish uchun so'zlovchi va tinglovchi uchun ma'lum bo'lgan faktni aytish. Deylik, bir inson o'z otasiga ovozi ko'tarib gapirishni boshlasa siz unga إِنَّ أَبُوكَ (U sizning otangiz), deysiz. Gap shundaki, tinglovchi buni allaqachon biladi, lekin bu bayonotda ritorik maqsad bor: bu bilan eshituvchiga otani hurmat qilishni va ovozi pastlanishni eslatadi.

⁴ Shayx Muhammad Sodik Muahmmad Yusuf. Tafsiri Hilol. -T.: Hilol nashryoti, 2020.- 4-juz, 239-240-betlar.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, arab tilshunosligi, ayniqsa, balog'at ilmida so'zlovchi nutqida va undagi har bir gapiga e'tiborli bo'lishi talab etiladi. Shu sababdan notiqning har bir jumlasini yuqorida sanab o'tilgan hodisalardan kelib chiqqan holda shakl va mazmun jihatidan o'zgarishi va o'zida bir qancha ko'chma ma'nolarni ifoda etishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. علي جرم، مصطفى أمين. البلاغة الواضحة. البيان. المعاني. البديع. القاهرة. 1999.
2. أحمد حاشمي. جواهر في المعاني والبيان والبديع. بيروت لبنان. 2004.
3. القرآن الكريم. مدينة العبور. 2001.
4. Shayx Muhammad Sodik Muahmmad Yusuf. Tafsiri Hilol. -T.: Hilol nashryoti, 2020.
5. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. I J. —Namangan: Ibrat, 2009.
6. Abdul-Raof Hussein. Arabic Rhetoric: A Pragmatic Analysis. USA and Canada: - Routledge, 2006.

